

O'QUVCHILARGA XALQ MUSIQA IJODINI O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI HAQIDA METODIK MAQOLA

Andijon davlat pedagogika instituti
Mirzaolimova Gulshanoy Mirzohidjon qizi
Gulshanoymirzaolimova123@gmail.com
+998935877515

ANNOTATSIYA: Mavzuning dolzarbligi shundaki, musiqa o'qituvchisi bo'lib yetishar ekanmiz, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga xalq musiqa ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida o'quvchilarning musiqiy bilimni yuksaltirish. Musiqiy ta'lim o'quvchilarga xalq musiqa ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida. Musiqa madaniyati darslarini o'quv dasturi asosida tashkil etish.

Kalit so'zlar: Xalq musiqasi, Milliy kuylar, o'zbek musiqa madaniyati, Usilli misralar.

O'zbek xalq o'z ildizlari bilan qadim- qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi, xilma-xil musiqa janrlari hamda boy tasvir vositalari bilan bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bunday tarixiy manbalar, boy va betakror qadimiy obidalar xabar beradi. O'zbek xalq musiqasi yillar davomida o'rganilib kelinmoqda. Masalan, o'zbek musiqa merosini to'plash va nota vositasida nashr etilishida V. M. Uspenskiy, Yunus Rajabiy, Ilyos Akbarov, M. Yusupovlarning mehnatlari beqiyosdir.

O'zbek xalq musiqasini yozib olish va qayta ishlash, ilmiy-nazariy tadqiqot o'tkazishda mutaxassis olimlar, jumladan, etnomusiqashunoslar- F. Karomatov, R. Abdullayev, S. Begmatov, O. Matyoqubovlarning olib borgan etnografik ekspeditsiya xizmatlari katta.

O'zbek musiqa madaniyati ikki qatlamga bo'linadi.

1. Xalq musiqasi.
2. Og'zaki an'anadagi professional musiqa.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi Kontseptsiyasining qabul qilinishi muhim madaniy-ma'rifiy ahamiyatga molik masalalardan biridir. Mazkur hujjatda Respublika xalq maorifi tizimida musiqa ta'lim-tarbiyasi ishining rivojlantirish istiqbollari, musiqa madaniyati fanini o'qitishni sifatli bosqichga ko'tarish, musiqa ta'limi maqsad vazifalari asosida ma'rifiy-musiqiy ishlarni tashkil etish, musiqa o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi ishlarini yanada takomillashtirish xususidagi istiqbol yo'nalishlar bayon etib berilgan. Bugungi kunda musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, shu soha bo'yicha tayyorlanayotgan bo'lg'usi mutaxassislar albatta, Respublikada musiqa ta'lim-

tarbiyasining yangi Kontsepsiyasini qunt bilan o'rganib, unda izohlangan boblarning mohiyatini chuqur tushunib, idrok etib o'zlarining pedagogik faoliyatlarida tadbqiq etishlari lozim.

Zamonaviy musiqa o'qituvchisi milliy musiqa hamda o'zbek adabiy tilini mukammal bilmog'i, umumbashariy musiqa madaniyatidan, kundalik musiqaviy-madaniy hayotdan voqif bo'lishi shart. Musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqot egasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozimligi aytib o'tiladi. Musiqa o'qituvchisi kasbiy sifatlariga ta'rif berilib, hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozimligi bayon etiladi. O'qituvchi musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi kerakligi haqida ham uqtirib o'tiladi.

O'zbek musiqa merosining ko'rsatib o'tilgan har ikkala qatlami asrlar davomida og'zaki an'ana tarzida, ya'ni nota yozuvlarisiz, o'gzaki ijod etish, og'zaki o'rganish va ijro etish orqali yetib keldi. Olimlar musiqa merosining ana shu tabiatni inobatga olgan holda xalq musiqasi folklorining bir turi, aniqrog'i- xalq og'zaki ijodi sifatida ta'riflaydilar va unga nisbatan "musiqiy folklore" tushunchasini qo'llaydilar. Folklor namunalari jonli ijro sharoitida yaratiladi, rivojlanadi, tarqaladi.

Xalq musiqasida har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning fikri, orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasi mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi tufayli ikki guruhga bo'linadi:

Ma'lum vaqt yoki ma'lum sharoitidagina ijro etiladigon kuy – aytilar: oilaviy marosim, mehnat qo'shiqlari, mavsumiy marosim kuy-qo'shiqlari, diniy navolar hamda turli tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylari.

Istalgan vatda va har qanday sharoitda, ya'ni barcha joda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar: o'zbek xalq musiqa janrlari: qo'shiq, ashula, yalla, lapar, qarsak (turli xil) va shunga o'xshash turli cholg'u kuylari. (Barcha ko'rinisdagi xalq janrlariga izoh beriladi.)

Xalq musiqasi tarkibiy sinkretik san'atdir. Bunday so'z, kuy va o'yin mujassamlashgan. Chunki musiqiy folklorida xalq xatti-harakati, xususan, mehnat jarayoni, urf-odatlarda boy marosimlarini o'tkazish uchun ko'rsatib o'tilgan uch unsur (so'z, kuy, raqs) muntazam ravishda bir-biriga aloqadorligida ko'rinadi va bu holat sayil va boshqa oilaviy bayram tantanalarida ijro etiladi.

Demak, so'z, kuy va raqs mushtarak holatlarini bir so'z bilan bayon etish maqsadida olimlar "aytim" atamasidan foydalanganlar. "Aytim"-bu musiqiy folklorning hozir bo'lish shakllaridan biridir.

Xalq musiqasida “aytim” iborasi bilan birga unga ma’nodosh “kuylash” iborasi ham ko’p qo’llaniladi. Xalq aytimlari keng omma orasida mashhur bo’lib, bu turdagi ijro jamoa va yakka tartibdagi ijrochilar tomonidan aytiladi.

Xalq aytimlarining she’riy tarkibini asosan barmoq vaznli xalq she’riyati tashkil etadi. She’riy misralar odatda so’z bo’g’inlariga qurilgan bo’lib, barmoq bilan sanaladi. Aytib o’tish joizki, misralar hijo (bo’g’in) va usul mushtarakligi namoyon bo’ladi. Masalan, she’r misralari 4,5,7,8,9,10,11 va boshqa turoqda bo’lishi mumkin:

a) To’rt bo’g’in – usulli misralar:

1. Choriy, chan- bar.

2. Biri, an-bar.

3. .| .| .| .|

4. .|.|.|.|

b) Besh bo’g’in – usulli misralar:

1. O’rog’im olmos.

2. O’rimdan qolmas.

3. Sira ham tolmas.

4. O’rmasam bo’lmas .

d) Yetti bo’g’in - usulli misralar:

1. Seni haydab boqaman.

2. Ko’ztumorlar taqaman.

Shu tariqa folklor musiqashunoslik sohasida “bo’g’in -usul” tushunchasi qo’llaniladi. Shu bilan birga aytimlarning she’riy asoslarida misralarning ma’lum tartibda qoyifalanishi katta ahamiyatga ega, chunki muntazam va izchil takrorlanuvchi bo’g’in -usulning to’g’ri tuzilishida, aytim namunalarini xotiraga keltirishda ko’makdosh vositasidir. She’r misralari a a b a, a b a b, a a b b tartibda qoyifalanib, ularga ma’lum mazmun, uyg’unlik, ohangdoshlik bag’ishlaydi:

1. Turna desam turimli – a

2. Keng dalada qo’nimli –a

3. Turnalar uchsa pastlab –b

4. Rizqing kelar unimli – a

Aytimlarning she’riy tarkibini to’rtlik bo’lgan xalq ruboiylari tashkil qiladi. Aytimlarning asosiy qismini ku- ohang tashkil qiladi. Shuningdek, musiqiy folklore namunalarini ijro etish uchun kasbiy ijrochilarga zarur bo’lgan va yillar davomida “usta-shogird maktabi”da o’rgatib kelingan ijro usullari va maxsus malakaga ega bo’lishi talab etilmaydi. Chunki xalq aytimlarining kuy tuzilishlari nisbatan tor ovoz ko’lamida (diapason) asosan kvarta, kvinta va seksta intervali doirasida kiylashga mo’ljallangan. Kuy – ohanglari, ma’lum iboralari ko’p marotaba takrorlanib hamda davomli usul uzunliklari bilan ajralib turadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004- yil.
2. SH.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik Toshkent, "Tasvir" nashriyoti uyi -2021
3. H. Nurmatov, N. Yo'ldasheva. "O'zbek xalq musiqa ijodi"
4. Karomatov F. O'zbek cholg'uchilik musiqa asboblari. Moskva. 1980 yil/
5. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqa asoslari haqida T. 1990 yil.